

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI TURG'UN BIRIKMALARNI MUQOBILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Nazirov Salimbek Olim O'g'li

nazirovsalimbek@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tilidagi ayrim maqollar qiyoslanib, ularning semantik-stilistik va struktural tomonlari izohlandi. Misollar yordamida ikki tildagi frazeologizmlarning o'xshash va farqli xususiyatlari aniqlandi. Shuningdek, maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi iboralar va maqollarni o'zaro muqobillashtirish va frazeologik til korpusini yaratish bo'yicha takliflar berildi.

Kalit so'zlar: maqol, turg'un birikma, paremiologik birliklar, mashina tarjimas, til korpusi, qiyosiy-chog'ishtiruv metodi.

KIRISH

“Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on o'yinayi hayoti til va adabiyotdur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur”, - degan edi Abdulla Avloniy. Hozirgi globallashuv davrida har bir millat oldida o'z tilini saqlab qolish, uning jahon hamjamiyatidagi mavqeyini oshirish eng dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Tillarning internet va elektron tilga aylanishi zamonaviy dunyoda ularning rivolanishi uchun eng muhim omillardan biridir. Buning uchun esa elektron resurslar: til korpusi, elektron lug'atlar va internet manbalarni yaratish kerak. Hozirda avtomatik tarjima, google tarjima jarayonlaridagi muammolarning mavjudligi ham aslida o'zbek tili korpusi, elektron lug'atlarning kamchiliklariga borib taqalmoqda. Mashina tarjimas jarayonida bo'ladigan asosiy g'alizliklar, shubhasiz, tilning paremiologik birliklari bilan bog'liq bo'lib, turg'un birikmalarning parallel lug'atini yaratish asosiy masalalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek tilshunosligida frazeologiya masalalarini monografik rejada o'rganish o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Bu mavzu bo'yicha dastlab Sh.Rahmatullaev faoliyat boshlagan. 1952-yili uning “Obrazli fe'l frazeologik birliklarining asosiy grammatik xususiyatlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi yoqlangan. Olimning 1965-yili “O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari” nomli kitobi nashr etilgan, 1966-yili esa ayni shu mavzuda doktorlik dissertatsiyasi himoya qilingan. 1978-yili “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati” chop etilgan¹. Ushbu lug'at 1996-yili qayta ishlangan va kengaytirilgan nashri e'lon qilingan. Olimning

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. — Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

O'zbek tili frazeologizmlarining nazariy masalalariga bag'ishlangan "Nutqimiz ko'rki" kitobi ham bo'lib, u 1970-yilda nashr etilgan².

B.Yo'ldoshev va aka-uka A.Mamatov singari professorlarning doktorlik dissertatsiyalari ham o'zbek tili frazeologizmlarining dolzarb masalalariga bag'ishlangan bo'lib, o'tgan asrning so'nggi yillarida himoya qilingan³.

Shuningdek, maqollar borasida olib borilgan ishlar ham diqqatga sazovor bo'lib, ko'plab ilmiy ishlarda, nomzodlik dissertatsiyalarida xalq maqollarining semantik, stilistik xususiyatlarini o'rganishga ham alohida e'tibor berildi. Bu jihatdan V.Abdullaev, X.Doniyorov, S.Mirzaev, O.Abdullaev, L.Azizxonova, S.Asqarov, A.Jo'raxonov, M.To'ychiev, M.Hakimov, M.Husainov, M.Sadriddinova salmoqli ishlar olib borgan.

H.Ro'zmetov va D.Atamuratov muallifligida "Ingliz va o'zbek maqollarining leksik tarjima xususiyatlari" maqolasida ingliz maqollarini o'zbek maqollari bilan muqobillashtirish borasida fikrlar ilgari surilib, ularning leksik tarjima xususiyatlari ko'rsatilgan, ingliz va o'zbek maqollari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar ham ko'rsatilgan⁴.

Xorijlik olimlardan P.Grzybek "Semiotic and semantic aspects of the proverb" asarida maqollarining semiotik va semantik jihatlari haqida qimmatli ma'lumotlarni bergan⁵.

Kanadalik mashhur paremeologistlar K.J.Gergen, T.B.Rojerslar psixologiyada maqollarning rolini muhokama qilib, ularning jamiyat uchun muhimligini ta'kidlab o'tishdi.⁶

Belgiyalik T.Vanallemeersch va Janubiy Afrikalik H.Kockaert o'z maqollarida tarjima jarayonida frazeologik izchillikni aniqlash va uni qanchalik avtomatlashtirish mumkinligi haqida muhim fikrlar aytib o'tadi⁷.

Kanadalik M.A. Qassem va hindistonlik G. Vijayasarat kabi olimlar ham madaniy idiomatik iboralarni ingliz tilidan arab tiliga tarjima qilish muammolarini amaliy tajriba sinovlari asosida o'rganishgan⁸.

² Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз-кўрки. – Т.: Фан, 1970.

³ Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари: ўқув қўлланма – Самарқанд, 1999.

⁴ Ro'zmetov H., Atamuratov D., Komiljonova M. Ingliz va o'zbek maqollarining leksik tarjima xususiyatlari. Ta'lim fanlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar 2-jild / 1-son / 2021
https://www.academia.edu/85180005/Lexical_Translational_Peculiarities_of_English_and_Uzbek_Proverbs

⁵ Grzybek. P. Semiotic and semantic aspects of the proverb. 2021. <https://hrak.srce.hr/277542>

⁶ Gergen. K. J., Rojers. T.B. Proverbs, pragmatics, and prediction. Article in Canadian Psychology/Psychologie canadienne. July 1990/

https://www.researchgate.net/publication/232599069_Proverbs_pragmatics_and_prediction

⁷ Vanallemeersch. T, Kockaert. H. Automated detection of inconsistent phraseology translation // Southern African Linguistics and Applied Language Studies. – Volume 28, 2010

<https://doi.org/10.2989/16073614.2010.545030>

⁸ Qassem. M, Vijayasarat. G. Problematicity of translating cultural idiomatic expressions from English into Arabic // Asia Pacific Translation and Intercultural Studies. - Volume 2, 2015

<https://doi.org/10.1080/23306343.2015.1016259>

Isfahon universiteti olimlari A. Dabaghi, E. Pishbin, L. Niknasablar “Proverbs from the Viewpoint of Translation” (Tarjima nuqtayi nazaridan maqollar) asarida ingliz va fors tilidagi maqollarning semantik xususiyatlari, etimologik jihatlariga batafsil to‘xtalib o‘tadilar⁹.

Ushbu maqolada ikki qarindosh bo‘lmagan tillardagi ideomatik birliklarni semantik-struktural xususiyatlari asosida qiyoslash, solishtirish uchun qiyosiy-chog‘ishtiruv metodidan foydalanildi, natijada ikki tildagi barqaror birikmalarning o‘xshash va farqli xossa va belgilari aniqlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Quyida ingliz va o‘zbek tilidagi turg‘un birikmalarni muqobillashtirishni ba’zi misollar orqali ko‘rib chiqamiz.

Once in a blue moon – juda kamdan kam, paytga nisbatan ishlatiladi. O‘zbek tiliga “*ko‘k oyda bir marta*” deya tarjima qilinadi. “*ko‘k oy*” birikmasi bu yerda ko‘chma ma’noda bo‘lib, harakatning deyarli bajarilmasligini ifodalaydi. Bu idiomat tilimizdagi “*tuyaning dumi yerga tegganda*”, “*toshbaqa tog‘ga chiqqanda*” “*xo‘roz tuxum qo‘yganda*” kabi turg‘un birikmalarga yaqin turadi, farqli jihati ingliz tilidagi idiomada juda kamdan kam bo‘lsa-da harakat yuz berishi mumkin.

To be honest, I only go to museums *once in a blue moon* – ochig‘i, men ko‘k oyda bir marta (juda kam) muzeylarga borib turaman. Bu kabi tarjima qilinganda idiomani tilimizdagi yaqin frazemalar bilan almashtirib bo‘lmaydi, bu esa mantiqiy g‘alizlikni keltirib chiqaradi, bunday vaziyatda iboraga mos so‘zlar yoki erkin birikmalardan foydalanish nutqni mantiqiylikni ta’minlaydi.

A bad tree does not yield good apples – bu maqol so‘zma-so‘z “*yomon daraxt yaxshi hosil(olma) bermaydi*” deya tarjima qilinib, ingliz tilida asosan oilaviy munosabatlarda qo‘llaniladi. Bu ingliz tilidagi mashhur maqollardan biridir, bu maqol ko‘proq shaxsiyat yoki harakatlar bilan bog‘liq. Bu maqol o‘zbek tilidagi “*Olmaning tagiga olma tushadi*” turg‘un birikmasiga semantik jihatdan o‘xshash sanaladi.

A bad leader does not produce good policies – bu maqola siyosatga taalluqli bo‘lib, agar biror rahbar yomon ishlasa, ya’ni beqaror yoki axloqsiz bo‘lsa, u o‘z siyosatida ham yaxshi natijalar ko‘rsata olmaydi degan ma’noni ifodalaydi. Maqolda majozan “*bad tree*” (yomon daraxt) rahbar, boshliqni, “*good apples*” (yaxshi olma) esa uning siyosatini anglatadi.

A dishonest teacher cannot produce honest students – bu misolda yomon o‘qituvchi (bad tree) yaxshi va halol talabalarni (good apples) tarbiyalashga qodir emasligi ta’kidlangan. Quyidagi jadvalda o‘zaro muqobil bo‘la oladigan maqollar ko‘rsatilib, o‘zbekcha va inglizcha sinonimlari bilan boyitilgan.

⁹ Dabaghi, A, Pishbin, E, Niknasab, L. Proverbs from the Viewpoint of Translation // Article in Journal of Language Teaching and Research. – November 2010

https://www.researchgate.net/publication/47716206_Proverbs_from_the_Viewpoint_of_Translation

✓ Inglizcha ibora	✓ O'zbekcha tarjima / sinonimlar
False friends are worse than open enemies	1) Olisdagi dushmandan angib yurgan do'st yomon; 2) Ablah do'st dushmandan yomon; 3) Yomon do'stdan qirda yotgan tosh yaxshi.
He laughs best who laughs last	1) Yaxshi ot keyin chopadi; 2) Jo'jani kuzda sana.
Lightning never strikes in the same place twice	1) Ko'r hassasini bir marta yo'qotadi; 2) Devona ham xurjunini bir marta yo'qotadi.
Never put off till tomorrow what can be done today	1) Bugungi ishni ertaga qoldirma; 2) Qolgan ishga qor yog'ar.
Inglizcha sinonimlari:	1) Never defer to tomorrow that which you can do today; 2) One today is worth two tomorrow; 3) One hour today is worth two tomorrow; 4) Today must borrow nothing of tomorrow; 5) Today's egg is better than tomorrow's hen.
You can lead a horse to water but you can't make it drink	1) Zorimiz bor-u, zo'rimiz yo'q.
Inglizcha sinonimlari:	1) We may give advice but we cannot give conduct. 2) Wise men propose and fools determine.
Don't count your chickens before they hatch	1) Podadan oldin chang chiqarma; 2) To'ydan oldin nog'ora chalma; 3) Suv ko'rmay etik yechma; 4) Xamir qorimasdan tandirga o't yoqma.
Inglizcha sinonimlari:	1) Don't cry herrings till they are in the net; 2) Don't sell the bear's skin before you've caught it; 3) Don't sell the bearskin until you have killed the bear; 4) Catch the bear before you sell his skin; 5) First catch your hare; 6) Never cackle till your egg is laid; 7) Gut no fish before you catch them; 8) Never fry a fish till it's caught; 9) To cook a hare before catching him; 10) Never cross a bridge until you come to it; 11) Don't cross the bridges before you come to them; 12) Do not strip before bedtime; 13) Don't sing your triumph before you have conquered.
A bad workman blames his tools	1) O'zolmagan otga uzangi bahona; 2) O'yin bilmagan xotinga uy torligi bahona; 3) O'roqchining yomoni o'roq tanlar;
A burnt child dreads the fire	1) Sutdan og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichar;

✓ Inglizcha ibora	✓ O'zbekcha tarjima / sinonimlar
	2) Tikanni bosgan qadamini bilib tashlar.
A calm sea does not make a skilled sailor	1) Bo'ynidan bog'langan it ovga yaramas; 2) Kepakka boqilgan ot ko'pkariga yaramas.
A picture paints a thousand words / a picture is worth a thousand words	1) Yuz bor eshitgandan bir bor ko'rgan yaxshi.
Inglizcha sinonimlari:	1) Actions speak louder than words; 2) A good example is the best sermon.
A fish always rots from the head down	1) Baliq boshidan sasir.
An eye for eye, a tooth for tooth	1) Jonga jon, qonga qon.
A constant guest is never welcome	1) Birinchi kun – oltin mehmon, ikkinchi kun – kumush, uchinchi kun – mis, uchdan o'tsa – pes; 2) Betamiz mehmon mezbbonni qistar; 3) Mehmonni asl derlar uch kundan kun sasir derlar; 4) Chaqqirilmagan mehmon sariq itdan yomon.
A flower blooms more than once	1) Quyosh botsa, yana chiqar; 2) Bu yil izi bo'lar, kellar yil o'zi bo'lar; 3) Bugun yupun, ertaga butun.
A fool at forty is a fool forever	1) Qon bilan kirgan jon bilan chiqar; 2) Qorindagi qiliq qora yerda qolar; 3) Bukrini go'r tuzatar; 4) O'rgangan qiliq o'lganda qolar; 5) To'qqizida qanday to'qsonida shunday.

Yuqorida keltirilgan maqollarning ro'yxatini yana ko'plab davom ettirish mumkin, bu kabi tadqiqotlar turg'un birliklarning mazmunini ochishda, ularni boshqa tildagi muqobillari bilan almashtirishda o'ziga xos pillapoya vazifasini bajaradi. Maqollarni korpusda muqobillari bilan muvofiqlashtirishda ularning stilistik va lingvokulturologik jihatlariga e'tibor qaratish ham muhim vazifalardan biridir. Har bir til vakili bu kabi turg'un birikmalardan o'z nutq sharoiti va imkoniyatiga qarab foydalana olishi uchun lug'at tarkibidagi turg'un birikmalar yetarli va mos sinonimlari bilan to'la boyitilishi shart. Ya'ni so'zlovchi ingliz yoki boshqa tillardagi turg'un birliklarni o'z tiliga tarjima qilish jarayonida nutqiy faoliyatga mos ravishda o'zi xohlagan sinonimidan foydalana olishi kerak va yuqorida ta'kidlaganimizdek, ibora muqobilining uslubiy va grammatik jihatlar qisman bo'lsa-da lug'atda yoritilishi lozim. Bu to'g'ri nutq tuzish, mazmuniy noaniqlik va mantiqisizlikning oldini olishga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, har bir til o'zining polisemantik xususiyatlariga ega, bu esa tilning boyligini ko'rsatuvchi o'ziga xos omillardan bo'lib, ularni til korpusga kiritish kompyuter lingvistikasi va tilshunoslik qonun-qoidalaridan kelib

chiqib amalga oshiriladi. Bu kabi turg'un birliklar millat hayotining ajralmas qismi bo'lib, uning tarixiy, ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettiradi, so'zlovchi nutqining boyligi, ifodaliligi va ta'sirchanligini oshirib, nutqning kommunikativ sifatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
2. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз-кўрки. – Т.: Фан, 1970.
3. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари: ўқув қўлланма – Самарқанд, 1999.
4. Ro'zmetov H., Atamuratov D., Komiljonova M. Ingliz va o'zbek maqollarining leksik tarjima xususiyatlari. Ta'lim fanlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar 2-jild / 1-son / 2021
https://www.academia.edu/85180005/Lexical_Translational_Peculiarities_of_English_and_Uzbek_Proverbs
5. Grzybek. P. Semiotic and semantic aspects of the proverb. 2021.
<https://hrcak.srce.hr/277542>
6. Gergen. K. J., Rojers. T.B. Proverbs, pragmatics, and prediction. Article in Canadian Psychology/Psychologie canadienne. July 1990/https://www.researchgate.net/publication/232599069_Proverbs_pragmatics_and_prediction
7. Vanallemeersch. T, Kockaert. H. Automated detection of inconsistent phraseology translation // Southern African Linguistics and Applied Language Studies. – Volume 28, 2010 <https://doi.org/10.2989/16073614.2010.545030>
8. Qassem. M, Vijayasarat. G. Problematicity of translating cultural idiomatic expressions from English into Arabic // Asia Pacific Translation and Intercultural Studies. - Volume 2, 2015
<https://doi.org/10.1080/23306343.2015.1016259>
9. Dabaghi. A, Pishbin. E, Niknasab. L. Proverbs from the Viewpoint of Translation // Article in Journal of Language Teaching and Research. – November 2010/https://www.researchgate.net/publication/47716206_Proverbs_from_the_Viewpoint_of_Translation
10. O'zbek xalq maqollari. T. Mirzayev. – Toshkent, 2005.
11. Malcolm Mann. Destination C1,C2 Grammar and Vocabulary – Macmillan. 2018.
12. English idioms, Phrases, Proverbs, Slangs. App.
13. www.phrases.com